BOSHLANG‘ICH SINFLARDA BADIIY ASAR MATNI USTIDA ISHLASH

Allaberganova Shahrizoda Bozorboy qizi
GulDPI, “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
Abdug‘ofurova Feruza Ikrom qizi
GulDPI, “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalar orqali o‘quvchilarda fanga oid tayanch kompetensiya elementlari shakllantirish jihatlari aytib o‘tilgan. Tanlangan metodni qo‘llash orqali o‘quvchilarda do‘stlik, mehr-oqibat, poklik tuyg‘ularini badiiy asar orqali shakllantirish, fikrlarini erkin va teran bildirishga o‘rgatish, bu bilan ularning dunyoqarashini o‘stirish, darslarda topqirlik, zukkolik, tezkorlik hamda faollik kabi qobiliyatlarini yanada takomillashtirish ko‘zda tutilgan.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta’lim, badiiy asar, ertak, afsona, rivoyat, do‘stlik, “To‘rt pog‘onali” metodi.

Abstract. This article touches upon the aspects of developing students' basic elements of competence related to science through modern technologies. Using the chosen method, students are offered to develop feelings of friendship, kindness and purity through a work of art, learn to freely and deeply express their thoughts, thereby developing their worldview, ingenuity, resourcefulness, intelligence and further improvement of abilities. such activities are provided.

Key words: Primary education, artistic work, fairy tale, legend, narrative, friendship, "Four-step" method.

Ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini faollashtirish bugungi kunda jamiyatning maktab oldiga qo‘ygan muhim talablardan biri hisoblanadi. O‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirish, ularning ijodiy qobiliyati va faolligini o‘stirishdek muhim vazifa darsda faollik prinsipini muvaffaqiyatli qo‘llash darajasi bilan chambarchas bog‘langan.

Boshlang‘ich ta’limda o‘qish savodxonligi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, yangi yaratilgan “Milliy o‘quv dasturi” asosida chiqarilgan darslikda o‘quvchilarning og‘zaki bilim ko‘nikmalariga alohida e’tibor qaratilgan. O‘qish savodxonligi fani og‘zaki va ijodiy fikrlashni o‘stirish, so‘z boyligini oshirish, to‘g‘ri va ifodali o‘qishga o‘rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyati hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘qish savodxonligi darslari oldiga qo‘yilgan tarbiyaviy vazifaning muvaffaqiyatli hal etilishi darsda badiiy asar matni ustida ishlash bilangina bog‘liq bo‘lib qolmay, balki bolani qurshab olgan hayot, tabiatdagi o‘zgarishlar, turli foydali mehnatlar bilan ham o‘zaro bog‘liq bo‘lishi lozim.

Boshlang‘ich ta’limda o‘qish savodxonligi darslarini afsonalarsiz, ertak va rivoyatlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Afsona va rivoyatlar bolalarda go‘zallikka muhabbat uyg‘otadigan, poklik tuyg‘ulariga orzuqa bo‘ladigan hissiyotni oshiradigan, tasavvurlar olamini boyitadigan, estetik didni os‘tiradigan, aql- idrokni mustahkamlaydigan, musiqa va tasviriy san’at elementlari bilan bog‘liq bo‘lgan, ozodlik va hurlikning qadrini his qildira oladigan darajada ta’sirchan va sehrli bo‘lishi zarur.

Afsona va rivoyatlar o‘quvchilarning ma’naviy kamol topishiga, qadrlash, e’zozlash kabi tuyg‘ularini rivojlantirishga, eng asosiysi o‘quvchilarning dunyo qarashini o‘zgartirishga, ularning so‘z boyligini oshirishga xizmat qiladi. Badiiy asar orqali o‘quvchilarning ruhiy holatini, asar mualliflariga bo‘lgan munosabatlarini orqali ularning psixologiyasini bilib olishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim tizimida ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining milliy tarbiyasi shakllanishida ham afsona va rivoyatlarning o‘rni beqiyosdir. Shuningdek “Shiroq” afsonasida vatanparvarlik, mardlik, jasurlik, insoniylik g‘oyalari ilgari suriladi. Bu rivoyat asosda bolalarning ruhiyati takomillashadi. Afsonalarimizni bolalarga o‘rgatishda har xil vositalar, texnologiyalar bilan ish olib olib borish maqsadga muvofiqdir.

Badiiy asar quyidagi muhim metodik qoidalar asosida tahlil qilinadi:

1. Badiiy asar mazmunini tahlil qilish va to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish malakasini shakllantirish bir jarayonda boradi.

2. Asarning g‘oyaviy-tematik asoslarini uning obrazlari, syujet chizig‘i qurilish va tasviriy vositalarini tushuntirish o‘quvchilarning shaxs sifatida umumiy kamol topishini, bog‘lanishli nutqini rivojlanishinii ta’minlaydi.

3. O‘quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish asar mazmunini ongli idrok etishning asosi va uni tahlil etishning zururiy sharti hisoblanadi.

4. Sinfda o‘qish o‘quvchilarning bilish faolayitini aktivlashtirish va atrof muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish vositasi hisoblanadi.

Masalan 3-sinf darsligida berilgan “Do‘stlik yo‘lagi” rivoyatini tahlil qilamiz. Bu rivoyatda do‘stlik, qon-qarindoshlik, mehr-oqibatlilik, ezgulik kabi g‘oyalar juda ta’sirchan va samimiy tasvirlab berilgan: “Qish kelib, qalin qor yog‘a boshlagan kunlarning birida qo‘shnilardan biri erta turib, darvozasi oldidagi qorni kurab, kata yo‘l tomonga yo‘lak ochibdi. Ishini tugatib qarasa, qo‘shnisi darvozasi oldidan yo‘lak ochib bo‘lgan ekan. Shunda u: “Ertaga vaqtliroq chiqib, birinchi bo‘lib yo‘lak ochib qo‘yaman”, deb ko‘nglidan o‘tkazibdi. Tuni bilan yana qor yog‘ibdi. Haligi odam qorni birinchi kuramoqchi bo‘lib saharda turibdi-da, shosha-pisha ko‘chaga chiqibdi. Ish boshlashdan oldin qo‘shnisi tomonga qarabdi. Qarasa, qo‘shnisining darvozasidan katta yo‘l tomonga yo‘lak ochib bo‘lingan ekan…

Bu kabi tushunchalar 4-sinf o‘qish savodxonligi darsligida ham berib o‘tilgan bo‘lib, buni “Do‘stlikda gap ko‘p ekan” o‘zbek xalq ertagi talqinida “To‘rt pog‘onali” metod orqali ko‘rib chiqamiz.

“To‘rt pog‘onali” metodning bosqichlari quyidagilardan iborat:

“Tushuntirish” bosqichida o‘qituvchi o‘quvchilarga avval oddiy asarni o‘qib, tushuntirib beradi.

“Nima qilish kerakligini ko‘rsatib berish” bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilarga topshiriqni qanday bajarish kerakligini amalda ko‘rsatib beradi.

Uchinchi bosqichda o‘quvchilar o‘qituvchi ko‘rsatgan ish harakatlarini takrorlaydi, o‘quvchilar bajarayotgan harakatlar yuzasidan o‘qituvchi o‘z fikrini bildirib, xatolarini to‘g‘rilab turadi.

“Mashq qilish” bosqichida ta’lim oluvchilarning hatti-harakati o‘qituvchi tomonidan nazorat qilib boriladi. O‘quvchilar ish amallarini mukammal o‘zlashtirganlaridan so‘ng, uni mustaqil bajaradilar. “To‘rt pog‘onali” metodning asosiy belgisi o‘quvchilarning harakatlari O‘qituvchi ko‘rsatib bergan harakatlar doirasi bilan cheklanganligidadir. “To‘rt pog‘onali” metodning afzalliklari: ta’lim oluvchilarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda yordam beradi; vaqtdan unumli foydalanish imkoniyati mavjud; oddiy ish bosqichlarini o‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘ladi.

Uzluksiz ta’lim tizimida raqamli va innovatsion texnologiyalarning dolzarb muammolari

Ertakni o‘quvchilarga oson tushuntirish, ertak qahramonlari o‘rniga o‘zlarini qo‘yib ularning hissiyotlarini his qildirish, asar voqealariga qiziqtirish va bundan tashqari ularning aktyorlik mahoratlarini sinash va orttirish uchun asarni rollarga bo‘lib ijro qildiramiz. Bu ertakda qog‘ozvoy va kesakvyning do‘stligi ta’riflangan bo‘lib bir kuni ikkalasi ham do‘st axtarib safarga chiqishgan paytlari uchrashib qolishadi. Shunda birinchi bo‘lib qog‘ozvoy gap boshlaydi:

- Assalomu alaykum, Kesakvoy

- Vaalaykum assalom, - deb zo‘rg‘a alik olibdi Kesakvoy.

- Qani, Kesakvoy, yo‘l bo‘lsin, juda ham xafa ko‘rinasan? – so‘rabdi Qog‘ozvoy,

- Bir joyda yolg‘iz yuraverib juda zerikib kettim. O‘zimga do‘st-birodar axtarib ketyapman, - debdi Kesakvoy…

Kunlardan bir kuni qattiq shamol turibdi. Shunda Qog‘ozvoy juda qo‘rqib ketibdi-da, Kesakvoyga:

- Voy, do‘stim Kesakvoy, chatoq bo‘lyapti-ku?! Ana endi, bizning do‘stligimiz buziladigan bo‘ldi. Shamol bobo qahr bilan kelib, meni sendan ayirib olib ketadi, - debdi qattiq qayg‘urib.

- Men bor ekanman, bunday bo‘lishi mumkin emas. Men bunga yo‘l qo‘ymayman, debdi Kesakvoy. Keyin Qog‘ozvoyning ustiga chiqib uzala tushib yotib olibdi-da, do‘stini Shamol bobo olib ketishidan saqlab qolibdi.

- Ikkovlari xursand bo‘lib turishgan ekan, osmonga Bulut bobo chiqib olibdi. Hamma yoqni qorong‘ilik bosib, bir payt sharros yomg‘ir quyib beribdi. Kesakvoy do‘sti Qog‘ozvoyga qarab:

- Ey do‘stim Qog‘ozvoy, ana endi mendek do‘stingdan ajraladigan bo‘lding. Mana shu yomg‘ir meni birpasda eritib selga qo‘shib olib ketadi-da, sendan ajratib, do‘stligimizga chang soladi, debdi.

- Shunda Qog‘ozvoy do‘stiga qarab:

- Unday deb g‘amga berilma, oshna. Mendek do‘sting bor ekan, bunga yo‘l qo‘ymayman. Men seni o‘rab olib, seni yomg‘irning qahr-g‘azabidan saqlab qolaman... debdi.

Bundan ko ‘rinib turibdiki do‘sting chin bolsa albatta har doim oldingda turadi.

Xulosa qilib aytganda boshlang‘ich ta’limda badiiy asarlarni o‘rganish tanqidiy fikrlay oladigan, boshqalarga hamdard bo‘ladigan, o‘z fikrini ijodiy ifoda eta oladigan barkamol shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy asarlar yosh o‘quvchilarda ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va madaniy ongni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Asarni tahlil qilish o‘quvchilarni savol berishga, aloqa o‘rnatishga va o‘z fikrlarini rivojlantirishga undaydi. Turli xil badiiy asarlarni o‘rganish orqali o‘quvchilar turli madaniyatlar va tarixlar haqida tushunchaga ega bo‘ladilar. Bu hamdardlik va tafovutlar uchun minnatdorchilikni rivojlantiradi, yanada kengroq dunyoqarashni rag‘batlantiradi. Badiiy asarlar o‘quvchilarga o‘z his-tuyg‘ularini va fikrlarini ijodiy tarzda ifoda etishga imkon beruvchi vositadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizxo‘jayeva N.N. O‘qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. -T.: TDPU. 2000.
2. Boshlang‘ich ta‘lim sifati va samaradorligini oshirish: muammolar va yechimlar Respublika ilmiy-amaliy konfrensiya materiallari Toshkent -2014.
3. Jumayev M.E., Yuldasheva M.Yu., Mingbayeva B.U., Mamatova G.A., Levkina M.F. Boshlang‘ich ta'lim fanlarini o‘qitish metodikasi O‘UM. Nizomiy nomidagi TDPU huzuridagi XTXQTUMOHM., 2017.
4. Toirova M.E. 3-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligi. “Novda”, Toshkent - 2023.
5. Toirova M.E. 4-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligi. “Novda”, Toshkent - 2023.